“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

USMANOVA GULNOZA FATXULLAYEVNA

G‘O‘ZA QATOR ORALARINING TUPROG‘INI QATLAMLAB YUMSHATISH VOSITASI ISHCHI QISMLARI PARAMETRLARINI ASOSLASH

05.07.01 – “Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT– 2026

UO‘K: 631.31 : 633.51(043)

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Usmanova Gulnoza Fatxullayevna
G‘o‘za qator oralarining tuprog‘ini qatlamlab yumshatish vositasi ishchi qismlari parametrlarini asoslash..... 3

Усманова Гульноза Фатхуллаевна
Обоснование параметров рабочих органов орудия для послойного рыхления почвы в междурядьях хлопчатника……. 23

Usmanova Gulnoza Fatxullayevna
Substantiation of the parameters of working parts of a tool for layer-by-layer soil loosening in cotton inter-row spacing…… 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 50

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

USMANOVA GULNOZA FATXULLAYEVNA

G‘O‘ZA QATOR ORALARINING TUPROG‘INI QATLAMLAB YUMSHATISH VOSITASI ISHCHI QISMLARI PARAMETRLARINI ASOSLASH

05.07.01 – “Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT–2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B5.1.PhD/T6549 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tiiame.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Igamberdiyev Asqar Kimsanovich,** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xudayarov Berdirasul Mirzayevich** texnika fanlari doktori, professor
	Abduraxmanov Abdukarim Atxamovich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.10.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil "29" oktyabr soat 10^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi, 39 uy. Tel.: (+99871) 237-09-45; faks: (+99871) 237-38-79 e-mail: admin.@tiiame.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (432-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi 39 uy. Tel. (+99871) 237-09-45; faks:(+99871)237-38-79, e-mail: admin.@tiiame.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "10" oktyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "17" fevral dagi № 117 raqamli reestr bayonnomasi).

B.S.Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, t.f.d., professor

U.T.Quziyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, PhD, dotsent

K.D.Astanaqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash zarurati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida energiya va resurslarning sarfini kamaytirishga qaratilgan ilg‘or texnologiyalar hamda texnika vositalarini keng joriy etishni talab qilmoqda. Agar 2025-yilda dunyo bo‘yicha umumiy qishloq xo‘jaligi yer maydoni 4,8 milliard gektarni, shundan 1,6 milliard gektari ekin maydonlarini tashkil etishi bashorat qilinganligini[1] hisobga olsak, ekin maydonlaridan yuqori hosil olish uchun tuproq unumdorligini saqlash, yerlarga ishlov berishning agrotexnik va ekologik talablarga mos keladigan ilg‘or texnologiyalar, texnika vositalarini qo‘llash bugungi davrning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ekinlar qator oralariga ishlov berishda ildiz zonasining suv-havo xususuyatlarini yaxshilaydigan, sug‘orish samaradorligini va hosildorlikni 10–15% gacha oshiradigan, yerning zich qatlamlarini mexanik buzadigan resurstejamkor vosita va ishchi qismlarni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Jahonda ekinlar qator orasiga ishlov berish uchun yangi ilmiy-texnik yechimlar, resurslarni tejovchi texnologiyalar va texnik vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda yerning namligini uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydigan, ekinlar qator orasiga ishlov berish sifatini oshiradigan hamda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali energiya resurslarini tejash imkonini beradigan usul va qurilmalarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan, g‘o‘za qator oralarining tuprog‘ini qatlamlab yumshatish imkonini beradigan ishchi qismlar va texnika vositasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, ekinlarni ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va suvni tejash imkonini beradigan mashina va qurilmalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chor-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmonida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda jumladan, g‘o‘za qator oralari tuprog‘i namligini saqlaydigan texnologiyaga asoslangan, sifatli ishlov beradigan, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan resurstejamkor vositani yaratish va ishchi qismlarining parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030

[1] https://www.fibre2fashion.com/news/cotton-news/global-cotton-production-consumption-set-to-rise-in-2024-25-icac-294218-newsdetails.htm?utm

yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari[2] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo amaliyotida ekin qator oralariga ishlov berish jarayonlari samaradorligini oshirish bo‘yicha turli uslublar ishlab chiqilgan.

Texnik ekinlar qator oralariga ishlov beradigan texnika vositalarini yaratish, texnologik ish jarayonlari, ishchi qismlari parametrlarini asoslash va takomillashtirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning tadqiqotchi olimlardan S.G.Say, E.I.Ponomarev, G.Ya.Say, E.V.Sofronov, A.A.Gaffarov, M.S.Chekusov, V.I.Kurdyumov, V.P.Zaytsev, M.Ye.Paxomov (Rossiya), Sh. Lu, S. Xe, Li.Xunven, S. Van, S. Lu, V.Lyu, P.Lyu, Ch. Chjan, X. Li (Xitoy), K.R.Paarlberg, H.M.Hanna, D.S.Erbach, R.G.Hartzler, W.Thomas (AQSh), T.Marakoglu, K.Carma, C.Ahmet, O.Ismail (Turkiya), V.K.Bishwal, J.Thomas, A.Dewangan, N.S.Rajput (Hindiston), A.S.Kobets, A.M.Pugach, M.M.Kharytonov (Ukraina), M.A. Hemeda, Z.E.Ismail (Misr), R.Bernik, F.Vučajnk (Sloveniya), H.Hosokawa, K.Adachi, K.Itoh, M.Matsuzaki (Yaponiya), I.Z.Gan-Lovkis (Belorus Respublikasi) va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

G‘o‘za qator oralari va boshqa texnik ekinlar oralariga ishlov beradigan texnologiya va texnik vositalarni yaratish, ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo‘yicha T.G.Zinin, G.M.Rudakov, V.A.Sergienko, A.X.Xojiev, R.I.Boymetov, E.I.Ponomarev, A.To‘xtaqo‘ziyev, A.Qoraxonov, P.I.Slobodyuk, S.G.Say, S.N.Shamshetov, F.M.Mamatov, T.S.Xudoyberdiyev, B.M.Xudoyarov, A.K.Igamberdiev, X.G‘.Abdulxaev, A.Ibragimov, B.U.Nuraboev, S.U.Temirov, M.Sh.Xoldarov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan salmoqli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, ma’lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan.

Ammo, g‘o‘za qator oralari tuprog‘ini chuqur, qatlamlab yumshatib tuproqdagi namlikning saqlanishini ta’minlaydigan, bir yo‘la egat shklini shaklllantirib ketadigan texnik vositaning ishchi qismlari parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan va o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini

[2] https://lex.uz/docs/-3262178 https://lex.uz/uz/docs/-4457272

mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining 2021-yil ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakultetining 4-muammo, 4.45-mavzu 2021 – 2024 yillarga mo‘ljallangan **“**Qishloq xo‘jaligi uchun rusurstejamkor texnologiyalar va texnik vositalarning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqish” rejasi asosida “Muhandislik tizimlarni boshqarish” kafedrasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nam saqlaydigan texnologiya asosida g‘o‘za qator oralarining tuprog‘ini qatlamlab yumshatish vositasi ishchi qismlari parametrlarini asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

g‘o‘za qator oralari va boshqa texnik ekinlar qator oralari tuprog‘iga chuqur ishlov beradigan texnologiyalar hamda texnik vositalarni tahlil etish;

g‘o‘za qator oralari tuprog‘iga chuqur ishlov berishga va ishchi qismlarga qo‘yiladigan agrotexnika talablarini ishlab chiqish;

g‘o‘za qator oralarining tiprog‘ini qatlamlab chuqur yumshatib tuproqdagi suv-namlik zaxirasini saqlab qolishga, ildizlar rivojlanadigan mihitda suv, havo va ozuqa maromini ta’minlashga yo‘naltirilgan texnologiyani takomillashtirish, texnik vosita ishchi qismlarining konstruktiv ko‘rsatkichlarini asoslash.

energiya va resurstejamkor texnik vositaning konstruksiyasini ishlab chiqarish, eksperimental tadqiq etish;

ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqot ob’ekti. G‘o‘za qator oralari tuprog‘ini qatlamlab chuqur yumshatadigan takomillashtirilgan texnologik jarayon hamda vositaning ishchi qismlari.

Tadqiqotning predmeti. G‘o‘za qator oralari tuprog‘ini qatlamlab chuqur yumshatadigan, sifatli uvalanish darajasini ta’minlaydigan, egat shklini shakillantiradigan texnik vositaning ishchi qismlari parametrlari, o‘zaro ta’sirlashish jarayonlari, ish rejimlarini hisoblash usullari, qonuniyatlari va natijalari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, matematik tahlil va matematik statistika, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, qishloq xo‘jalik texnikalarini sinash, energetik baholash usullari, me’yoriy hujjatlardan (TSt 63.04.2001, TSt 63.03:2001, RD Uz 63.03-98) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

g‘o‘za qator oralarini qatlamlab chuqur yumshatib tuproqdagi suv-namlik zaxirasini saqlab qolishga, ildizlar rivojlanadigan mihitda suv, havo va ozuqa maromini ta’minlashga yo‘naltirilgan texnologiyani amalga oshiradigan takomillashtirilgan ishchi qismlarga ega energiya va resurstejamkor texnik vosita ishlab chiqilgan;

tuproqning fizik-mexanik xossalari va agregatning harakatlanish tezligini hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan texnik vosita ishchi qismlarining ta’siridan tuproq qatlamlarining ish jarayonida siljishini analitik aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

pichoq ustunining (tutqichining) yumshatiladigan qatlam tagiga nisbatan eng katta egilish burchagi tuproq, begona o‘tlar va ularning qoldiqlarini ishchi qismdan normal holda chiqib ketishini ta’minlash shartidan kelib chiqib, yumshatuvchi pichoq ko‘kragining balandligi, uning sirti uzunligi esa tuproq holatiga, ichki ishqalanish burchagi va yumshatish chuqurligiga bog‘liq holda aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g‘o‘za qator oralariga qatlamlab sifatli chuqur ishlov beradigan, tuproqdagi suv-nam zaxirasini saqlab qoladigan, ildizlar taraladigan muhitda me’yoriy suv, havo va ozuqa rejimini ta’minlaydigan texnologiya takomillashtirilgan;

g‘o‘za qator oralariga qatlamlab chuqur ishlov berib, yuqori uvalanish darajasini ta’minlash, tekis yuzali egat shakillantirish usuli ishlab chiqilgan;

parametrlari asoslangan texnik vosita ishchi qismlaridan foydalanish evaziga tuproqning suv-nam zaxirasini saqlab qolishga, ildizlar taraladigan muhitda me’yoriy suv, havo va ozuqa rejimini ta’minlashga, ekin hosilining ortishiga, mehnat hamda material resusrlar sarfining kamayishiga erishilgan;

g‘o‘za qator oralariga qatlamlab chuqur sifatli ishlov beradigan, qator orasi egati profilini tekis shakllantiradigan, ishlov berish jarayonida tuproqdagi namlikning fizik bug‘lanib yo‘qotilishining oldini oladigan energiya va resurstejamkor texnik vosita ishlab chiqilgan, ishchi qismlarining parametrlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishchi qismlarning parametrlari va ish rejimlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi va mexanikaning asosiy qoida hamda usullariga amal qilinganligi, tajriba natijalarining umumlashtirilganligi, matematik statistika uslublari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining adekvatligi, dala sinovlari o‘tkazilib, ishlab chiqarishga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati g‘o‘za qator oralariga sifatli chuqur ishlov berishda samarali energiya hamda resurstejamkor texnologik jarayonlarning bajarilishini ta’minlovchi texnik vosita ishchi qismlarining parametrlarini tuproqqa ta’sir etish qonuniyatlarini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tuproqqa qatlamlab chuqur ishlov berib yuqori uvalanish darajasini ta’minlash, natijada suv-nam zaxirasini saqlab qolish, ildizlar taraladigan muhitda me’yoriy suv, havo va ozuqa rejimini, ekin hosilining ma’lum darajada ortishini ta’minlash, usuli, tekis yuzali egatni shakllantirish usuli, parametrlari asoslangan ishchi qismlardan foydalanish evaziga mehnat hamda materiallar sarfining kamayishiga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G‘o‘za qator oralarining tuprog‘ini qatlamlab yumshatish vositasi ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

resurstejamkor texnik vositaning eksperimental tajriba nusxasi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida joylashgan “Ilmiy-o‘quv markaz” DUKda, Toshkent viloyati Qibray tumani “Izzatilla bog‘i”

fermer xo‘jaligida, Qibray tumanidagi “Neyro Bars” MChJda dala sinovlaridan o‘tkazilgan (Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani qishloq xo‘jaligi bo‘limining 2025-yil 20-fevraldagi 6/21-son ma’lumotnomasi, Toshkent viloyati Qibray tumani qishloq xo‘jaligi bo‘limining 2025-yil 10-fevraldagi 88-son ma’lumotnomasi, Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2025-yil 13-martdagi 02/02-87-son ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 12-dekabrdagi 05/04-04-865-son ma’lumotnomasi);

yangi, mahalliy tuproq sharoitlarga mos texnologiya va energiya hamda resurstejamkorlikni ta’minlovchi, g‘o‘za va boshqa texnik ekinlar qator oralariga ishlov beradigan texnik vosita Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq va Qibray tumani fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 12-dekabrdagi 05/04-04-865-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalari ish unumdorligining 3,7 foizga oshirish, foydalanish xarajatlarni 12,75 foizga kamaytirish imkonini bergan;

g‘o‘za qator oralari tuprog‘ini qatlamlab yumshatadigan, sifatli uvalanish darajasini ta’minlaydigan, tekis yuzali egat shakllantiradigan texnik vositaning energiya va resurstejamkorlikni ta’minlovchi texnologik hamda konstruktiv sxemalari ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 12-dekabrdagi 05/04-04-865-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari texnik vositaning texnik topshiriqlari va texnik shartlarini, ishchi qismlarning turi, ularni ramaga joylashtirish sxemalarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 4 ta konferensiya, jumladan, 1 tasi respublika va 3 tasi xorijiy konferensiyalarda nashr etilgan**.**

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotla ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan tadqiqot natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari,

e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida ekinlar qator orasi tuprog‘iga chuqur ishlov beradigan energiya va resurstejamkor texnologiyalar va texnik vositalar tahlili, ishlov berishga qo‘yiladigan agrotexnika talablari, ishlov beradigan texnik vosita va qurilmalar bo‘yicha respublikamiz hamda chet ellarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlar tahlil etilgan. Tahliliy natijalar asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“G‘o‘za qator oralarining tuprog‘ini qatlamlab yumshatish resurstejamkor texnologik jarayonini takomillashtirish va texnik vosita ishchi qismlari parametrlarini asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobida g‘o‘za qator orasi tuprog‘iga agrotexnika talablari darajasida ishlov berishni, ya’ni: pushtadan egat tubigacha qatlamlab ishlov berib uvalangan tuproq qatlamini hosil qiladigan, suvni tuproqning pastki qatlamigacha kirib borishini ta’minlaydigan, bir o‘tishda egatning ko‘ndalang kesim profili bo‘yicha sifatli ishlov berilgan egat shaklini shakllantiradigan, ishlov berish chuqurligi bo‘yicha qatlamlab sifatli uvalangan tuproq qatlamini hosil qiladigan; tuproqdagi namlikning fizik bug‘lanib yo‘qotilishini kamaytiradigan energiya va resurstejamkor samarali texnologiyani ta’minlaydigan texnik vosita ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan texnologiyaning resurstejamkorligi texnik vositaning ishchi qismlari bilan g‘o‘za qator orasi tuprog‘iga ko‘ndalang va bo‘ylama kesim bo‘yicha qatlamlab ishlov berish, sifatli ishlov berilgan egat shaklini shakllantirish, suvning tuproqning pastki qatlamigacha kirib borishi osonlashtirish va tuproq qatlamlaridagi namlikning fizik bug‘lanib yo‘qotilishi kamaytirish hisobiga ta’minlanadi (1-rasm).



A_{def1} – birinchi deformatsiya tarqalish kengligi; A_{def2} – ikkinchi deformatsiya tarqalish kengligi; A_{def3} – uchinchi deformatsiya tarqalish kengligi; b_1 – birinchi pog‘onaga ishlov berish kengligi; b_2 – ikkinchi pog‘onaga ishlov berish kengligi; b_3 – uchinchi pog‘onaga ishlov berish kengligi.

1-rasm. Qator orasiga resurstejamkor texnologiya bo‘yicha qatlamlab

ishlov berilgan ko‘ndalang kesim sxemasi

Dissertasiya taqdiqotining maqsadi va vazifalardan kelib chiqib, g‘o‘za qator orasiga ishchi qismlar bilan ishlov berishda tuproqni sifatli uvalangan holga keltirish, namligini saqlash, qator orasi egatining sifatli yumshatilgan shaklini shaklantirish hisobiga yuqori ish unumdorlikka erishish uchun energiya-resurstejamkorlikni taminlaydigan texnik vositaning texnologik va konstruktiv sxemalari ishlab chiqilgan.

Ish sifati va unumini oshirish, qo‘l mehnati, energiya va metallhajmdorlikni kamaytirish maqsadida mavjud kultivatorlarga o‘rnatiladigan ko‘p sonli ish qismlari o‘rniga ekin qator orasiga sifatli va chuqur ishlov berish texnologik operatsiyani ishonchli amalga oshiradigan energiya va resurstejamkor texnik vosita hamda ishchi qismlar ishlab chiqilgan.

Texnik vosita rama 1, ish qurollarni gorizontal tekislikka nisbatan rostlovchi mexanizm 2, qulflar 4 yordamida qotirilgan ustunlar 3 va va g‘o‘za qator orasi tuprog‘iga qatlamlab ishlov beradigan pichoqlar 5, 6 va tishli 7 g‘altakdan tashkil topgan. Pichoqlar 5, 6 ikki yonli pona ko‘rinishida tayyorlangan va ular ekin qator orasiga egatning ko‘ndalang va bo‘ylama kesimi bo‘yicha 30–45 cm chuqurlikgacha pog‘onali ishlov bera oladigan qilib ishlab chiqilgan (2-rasm).



1-rama; 2-rostlovchi mexanizm; 3- ustunlar; 4- qulf; 5, 6- ishchi qism pichoqlari; 7-pichoqli g‘altak.

2-rasm. Takomillashtirilgan energiya va resurstejamkor kultivatorning konstruktiv sxemasi

Sug‘orma dehqonchilik sharoitida tuproqning ichki ishqalanish burchagi namlikka bog‘liq bo‘lgani uchun, har xil holatdagi (quruq va nam) tuproqlarda yuqori sifatli yumshatishni ta’minlash maqsadida ishchi qismlarning konstruksiyasi har ikki holatga ham mos bo‘lishi lozim.

Olimlarning tahliliy natijalariga ko‘ra, eng yaxshi maydalanish yumshatuvchi tishlarning o‘rtacha qamrov kengligi (eni) b=50–150 mm oralig‘ida, ustunning (tutqichning) yon profili logarifmik spiral shaklida bo‘lgan holda ta’minlanadi. Pichoq yumshatib ketadigan pichoq osti qatlam tekis va zichlanmagan holda bo‘lishi uning o‘rnatish α burchagi bilan ta’minlanadi:

$$\alpha \le 45^o - \frac{\varphi_{t.t}}{2} \qquad (1)$$

bunda $\varphi_{t.t}$ – tuproqning ichki ishqalanish burchagi, gradus.

Pichoq ustunining (tutqichining) yumshatiladigan qatlam tagiga nisbatan eng katta egilish burchagi tuproq, begona o‘tlar va ularning qoldiqlarini ishchi qismdan normal holda chiqib ketishini ta’minlash shartidan kelib chiqib, $90^0 - \varphi_{t.t}$ dan oshmasligi lozim. Yumshatuvchi pichoq ko‘kragining h balandligi, uning sirti uzunligi L tuproq holatiga, ya’ni ichki ishqalanish burchagi va yumshatish chuqurligiga bog‘liq.

Yuqoridagilarga asoslangan holda yumshatuvchi ishchi qismning yon profili quyidagi ko‘rinishdagi logarifmik spiral shaklida bajarilishi taklif etiladi:

$$r_i = r_o e^{\pm \theta_i tg\varphi_{t.t}} \tag{2}$$

bunda r_i – joriy radius-vektor, mm; r_o – boshlang‘ich radius-vektor, mm; e – natural logarifm asosi; θ_i – joriy polyar burchak, rad; $\varphi_{t.t.}$ – tuproqni tuproqga ishqalanish, ya’ni tuproqning ichki ishqalanish burchagi, gradus.



3-rasm. Ishchi qism yon profilining logarifmik spiral shaklidagi sxemasi

Yuqori θ_y va quyi θ_q polyar burchaklar quyidagi formulalar bo‘yicha aniqlanishi mumkin,

$$\theta_y = 90^o - \phi_{t.t}; \quad \theta_q = \frac{3}{2}\phi_{t.t} - 45^o \tag{3}$$

Ishchi qismning yon profilini qurish uchun boshlang‘ich radius vektorning qiymatini quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlash mumkin,

$$r_o = \frac{h_{yum}}{e^{\theta_q tg\phi_{t.t} \cos\theta_q}} \tag{4}$$

bunda h_{yum} – tuproq qatlamini yumshatish chuqurligi, m.

Tuproqni yumshatadigan ishchi qism pichog‘ining asosiy parametrlaridan biri pichoqning L uzunligi hisoblanadi. Uning qiymati tuproq holati va ishlov berish chuqurligiga bog‘liq hisoblanadi. U holda pichoqning L uzunligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$L = h_{yum}(tg\theta_q + \frac{\cos\varphi_{t.t.}}{e^{\theta_q \cdot tg\varphi_{t.t.}} \cdot e^{\theta_y} \cdot \cos\theta_q}) \tag{5}$$

$h_{yum} \approx 125mm$, $\theta_q = 15^o$, $\phi_{t.t.} = 40^o$, $\theta_y = 50^o$ qiymatlarida $L = 126,8mm$ ga teng ekanligini aniqlashimiz mumkin. (5) formulaga asoslanib pichoqning uzunligini $L = 130$ mm ga tengligini asoslab olindi.

Texnik vosita ishchi qism pichoqlarining o‘rnatish burchagini 1-formula bo‘yicha asoslab olindi,

$$\alpha \le 45^o - \frac{\phi_{t.t.}}{2} \le 45^o - \frac{40}{2} \le 25^o \tag{6}$$

Demak, ishchi qism pichog‘ining o‘rnatish burchagi $\alpha = 25^o$ teng bo‘ladi.

Ishchi qismlar pichoqlarining kenligi, ularni ko‘ndalang va bo‘ylama kesim bo‘yicha pog‘onali joylashtirish uchun avval quyi uchinchi qatlamni yumshatadigan pichoq kengligini A_3B_3 chiziq kengligidan kichik yoki teng bo‘lish shartiga muvofiq aniqlandi (4-rasm).



bunda h_{yum} – tuproq qatlamini yumshatish chuqurligi, m; ψ_{yon} – ko‘ndalang kesim bo‘yicha yonga sinish burchagi, grad.; b_u – ustun kengligi, mm.; h - tish ishchi sirti yuzasining uzunligi bo‘yicha tuproqning uvalanish balandligi, mm.

4-rasm. Quyi uchinchi qatlam kengligini asoslash sxemasi

Hisoblash uchun tuproqning yonga sinish burchagini eng katta qiymati 61^o uchun quyi uchinchi qatlam pichog‘ining kengligini aniqlab olamiz. Buning uchun 4-rasmdagi sxemadan pichoqning kengligini quyidagi tenglama orqali ifodalaymiz

$$b_3 \le A_3B_3 \le 2(h_k \cdot \frac{\sin(90^o - \psi_{yon})}{\cos(90^o - \psi_{yon})}) \le 2(h_k \cdot tg(90^o - \psi_{yon})) \qquad (7)$$

$h_{yum} = 125mm$, $\sin(90^o - \psi_{yon}) = \sin 29^o$, $\cos(90^o - \psi_{yon}) = \cos 29^o$, $h_k = 55mm$ qiymatlarida uchinchi qatlamga o‘rnatiladigan pichoqning kengligini $b_3 = 60,5$ mm ga teng. (7) tenglamaga asoslanib quyi uchinchi qatlam pichog‘ining kengligini $b_3 = 60$ mm ga teng deb asoslab olindi.

Tuproqning birinchi va ikkinchi qatlamiga ishlov beradigan pichoqlar uchun sirpanish shartini quyidagi ko‘rinishda qabul qilindi

$$\gamma < 90^o\text{-}max\ (\varphi_s + \varphi_{o'}) \qquad (8)$$

bunda φ_s – tuproqning eng katta tashqi ishqalanish burchagi, grad; $\varphi_{o'}$ – begona o‘t va qoldiqlarining eng katta tashqi ishqalanish burchagi, grad.

(8) ifoda bilan mos holda φ_s va $\varphi_{o'}$ tashqi ishqalanish burchaklarning maksimal qiymatlarini ($\varphi_s = 29^\circ - 33^\circ$) ($\varphi_{o'} = 20^\circ - 36^\circ$) inobatga olib, pichoqning sirpanish burchagi o‘rtacha $\gamma \approx 31^o$ bo‘lishini aniqlandi.

Texnik vosita ishchi qismlarini g‘o‘za qator orasiga o‘rnatish.

Yumshatiladigan tuproqning birinchi qatlami g‘o‘za qator orasi egatining o‘ng va chap tomon chetki qismiga to‘g‘ri keladi. Agrotexnika talablariga ko‘ra chetki qismlarni yumshatadigan o‘ng va chap yonli pichoqlar ta’siridan tuproq qatlamining deformatsiyalanishidan tarqaladigan yonga sinish ψ_y burchagi g‘o‘za tuplariga nisbatan himoya zonasi chegarasidan o‘tishi kerak (5-rasm).



$h_1, h_2, h_3,$ – mos ravishda 1, 2, 3 – qatlam balandligi; $b_1, b_2, b_3,$ – ishchi qism pichoqlarining kengligi; S_1, S_2 – ischi qismlar orasidagi masofa; α – yumshatish burchagi; A^1_{def} – deformatsiya kengligi; ψ_y – tuproqning yonga sinish burchagi

5-rasm. G‘o‘za qator orasini pog‘onalab yumshatishning qatlamlar bo‘yicha taqsimlanish sxemasi

Birinchi qatlamni yumshatadigan pichoqlarning α yumshatish burchagi tuproqning ψ_y yonga sinish burchagini hosil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Chunki, α yumshatish burchakning o‘zgarishi tuproqning ψ_y yonga sinish burchagiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.



6-rasm. Pichoqlarni har xil g‘o‘za qator orasiga joylashtirish sxemalari

5 va 6-rasmlardan foydalanib birinchi qatlamni yumshatadigan o‘ng va chap yonli pichoqlarning h_1 tuproq qatlamiga ishlov berishda tarqaladigan tuproq deformatsiyasining kengligini umumiy ko‘rinishda quyidagi ifoda bilan aniqlandi

$$A_{def} \geq b_{1_{chap}} + h_1 \cdot ctg\psi_y + S_1 + b_{1_{o'ng}} + h_1 \cdot ctg\psi_y \qquad (9)$$

Agrotexnika talablari sharti bo‘yicha A_{def} ning kengligi qator orasi kengligidan himoya zonasini ta’minlaydigan darajada kichik bo‘lishi kerak. Masalan, 90 cm qator orasi uchun $A_{def} \leq 90 - 15 = 75$ cm bo‘lishi kerak.

U holda (9) tenglamadan S_1 masofani quyidagicha aniqlandi

$$S_1 \leq A_{def} - (b_{1_{chap}} + b_{1_{o'ng}}) - 2h_1 \cdot ctg\psi_y \qquad (10)$$

G‘o‘za qator orasi birinchi qatlamini yumshatish chuqurligining o‘rtacha h_1 =125 mm, pichoq kengligining 130 mm qiymatlarida $S_1 = 306$, $S_2 = 167$ mm ga teng bo‘ladi.

(10) formulaning tahlilidan shuni aniqlash mumkinki, 90 cm li g‘o‘za qator orasi birinchi qatlamini yumshatish chuqurligining o‘rtacha h_{yum}=125 mm qiymatida pichoqlarning kengligi b_1=b_2=130 mm bo‘lganda, ustunlari orasidagi masofa S_1=306 mm, S_2=167 mm qiymatlarida shart bajariladi. 76 cm g‘o‘za qator orasiga proporsional bo‘lgan yumshatish chuqurligi h_1 =125 mm, pichoqlarning kengligi b_1=b_2=105 mm bo‘lganda, ustunlari orasidagi masofa S_1=216 mm, S_2=106 mm qiymatlarida shart bajariladi.

Keyingi bosqichlarda tuproq qatlamini pichoqning ishchi yuzasi bo‘ylab siljishini agregat tezligi va pichoqning parametrlariga bog‘liqligi aniqlandi. Uning ishi ma’lum burchak ostida harakatlanayotgan pichoqning AB ishchi yuzasi bo‘yicha tuproq qatlamini sirpanishiga asoslangan.

Quyidagi 7-rasmda pichoq qanoti bilan tuproq zarralarini otilish masofasining agregat tezligiga bo‘g‘liqligi grafik usulda tasvirlangan.



1, 2, 3, 4- tuproq zarralarining otilish masofasi

7-rasm. l=0,13 m; β = 30°; γ = 31° qiymatlar uchun tish qanoti bilan tuproq zarralarini otilish masofasining agregat tezligiga bog‘liqlik grafigi



8-rasm. Tish qanoti bilan tuproq zarralarini otilish masofasining agregat tezligiga bog‘liqligining 3D yuzada tasvirlanishi

Agar tuproq zarrachalari pichoq ishchi yuzasiga yopishmasa tuproq qatlami sirpanish jarayonida deformatsiyalanmaydi. Lekin pichoq tig‘idan ishchi yuzasi bo‘yicha siljishiga olib keladi.

7, 8-rasmlardagi grafiklar tahlilidan agregat harakatlanish tezligining ortishi bilan tuproq zarralarini otilish masofasining ortishi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish usullari va natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlar uchun loyiha va tayyorlov ishlari olib borilgan, tadqiqotlarni o‘tkazish sharoitlari va usullari aniqlangan, tuproqning fizik-mexanik xossalari tadqiq qilingan, tuproq namligini to‘plashda yog‘gan yog‘ingarchilik monitoringi olib borilgan.

Texnik vosita ishchi qismining yon profilini logarifmik spiral shaklida loyihalashtirishda Kompas-3D V16 dasturidan foydalanildi. Natijada ishchi qismlarning maket namunalari ishlab chiqildi.

9-rasm. Ishlab chiqilgan ishchi qismlar

Ishlab chiqilgan maket namuna asosida birinchi, ikkinchi va uchinchi tuproq qatlamiga ishlov beradigan pichoqlar po‘lat metaldan kesish uchun loyihalashtirildi va ishlab chiqildi. (9-rasm).

Dasturda belgilangan vazifa bo‘yicha “AGRIXIM” MCHJ bilan hamkorlikda g‘o‘za qator orasini yumshatadigan texnik vositaning konstruksiyasi ishlab chiqildi (10-rasm).

10-rasm. “AGRIXIM” MCHJ da ishlab chiqilgan eksperimental kultivator

Ishab chiqilgan texnik vositaning konstruksiyasi ishchi qismlar to‘plamini barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Tadqiqot dasturiga asosan respublikamiz bo‘yicha yog‘ingarchiliklarning 10 yillik monitoringi tahlil qilindi. Tahlildan xulosa qilish mumkinki, o‘rtacha bahor davrida 29,3 mm, kuz davrida 31,1 mm yomg‘ir suvi yerga tushgan. Bu suvni tuproqda ushlab qolish muhim tadbir hisoblanadi.

Eksperimental tadqiqot natijalari g‘o‘za qator orasiga paxta kultivatori bilan ishlov berilganda tuproq namligining yo‘qotilishi ko‘p jihatdan ishlov berilgan yuzaning serkesakligiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Bunga aniqlik kiritish maqsadida tuproqning fraksion o‘lchamlari bo‘yicha namlikning yo‘qotilishi tadqiq etildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra tuproqning fraksion o‘lchamlari bo‘yicha 10 sutka davomida namlikning jismoniy bug‘lanib yo‘qotilishi aniqlandi (11-rasm)



1 – 5-10 mm tuproq qatlamidagi namlik miqdori; 2 – 10-15 mm tuproq qatlamidagi namlik miqdori; 3 – 15-20 mm tuproq qatlamidagi namlik miqdori; 4 – 20-30 mm tuproq qatlamidagi namlik miqdori; 5 – 30-40 mm tuproq qatlamidagi namlik miqdori; 6 – 40-50 mm tuproq qatlamidagi namlik miqdori

11-rasm. Tuproq namligining fraksion o‘lchamlari bo‘yicha fizik bug‘lanib yo‘qotilish grafiklari

Eksperimental tadqiqot natijalari tuproqdagi namlikning jismoniy bug‘lanib yo‘qotilishi uning yuza qatlamidagi fraksion tarkibi o‘lchamlariga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tuproqning fizik-mexanik xossalari tadqiqi natijalari. Dala tajribalari o‘tkazilgan tajriba maydonda tuproqning fizik-mexanik xossalari 2,5 metr chuqurlikdagi qatlamgacha tadqiq etildi. Tadqiqot natijalari tuproq osti suvi 3,5 metrdan chuqurroqda ekanligi aniqlandi. Tuproq qatlamlari holati kesimlarda o‘rganilib unumdor va unumsiz qattiq qatlam joylashgan chegaralar aniqlandi.

Dala tadqiqotlarida paxta qator orasiga kultivator bilan ishlov berilganda yirik kesaklar hosil bo‘lishi tasdiqlandi.

Yuqorida aniqlangan ma’lumotlar va fikrlarni tasdiqlash maqsadida maxsus dala eksperimenti sxemasi ishlab chiqildi (12-rasm).



12-rasm. Qator orasini bo‘ylama kesimlar bo‘yicha tadqiq etishning maxsus dala eksperimenti sxemasi

Qator orasi ko‘ndalang va bo‘ylama profillarini tadqiq etish jarayonida maxsus ishlab chiqilgan eksperiment sxemasi asosida tuproq qatlamlari bo‘yicha namlik ko‘rsatkichlarining qiymatlari kengroq tadqiq etildi. Bunda qator orasi tuprog‘ining namlik ko‘rsatkichlari ishlov berishdan oldin va ishlov berilgandan keyin tadqiq etildi. Olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berish natijasida ishonchli qiymatlar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Kesimlar bo‘yicha tuproq namligi bo‘yicha tadqiqot natijalari

Ko‘rsatkichlar	**Kesimlar**	**Kesimlar bo‘yicha tuproq namligi, %**		
		0-10 cm	**10-20 cm**	**20-30 cm**
Namlik, %	Ishlov berishdan oldin/ishlov berilgandan keyin			
	A	7,9/6,2	9,1/7,3	14,6/9,3
	B	9,8/7,9	12,6/9,8	14,1/11,2
	S	11,6/8,8	13,4/10,5	15.4/12,3
	D	9,9/7,8	11,7/9,1	13,1/11,3
	E	7,2/6,7	9,4/7,2	13,9/9,3
Namlikning bug‘lanib fizik yo‘qotilishi, %		19,39	21,88	24,05

Eksperimental tadqiqot natijalari tuproqdagi namlikning jismoniy bug‘lanib yo‘qotilishi uning fraksion tarkibi o‘lchamlariga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Resurstejamkor texnik vositaning tortishga qarshiligini eksperimental tadqiq etish. Dala sinovlarida bir seksiyali agregatning ish jarayoni va transport holatidagi tortishga qarshiliklari borib-kelishlar bo‘yicha 3 marta takrorlanishda aniqlandi. Dala sinovlar natijalari asosida agregatning 7 va 8 km/s harakatlanish tezliklarida texnologik jarayonni bajarish uchun talab etiladigan quvvat ko‘rsatkichlar ham aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Texnologik jarayonni bajarish uchun talab etiladigan quvvat ko‘rsatkichlari

№	Talab etilgan quvvat kW:			
1	G‘o‘za qator orasi tuprog‘ini yumshatishga	**km/s**	**kW**	**kW**
		7	10,99	11,55
		8	12,56	
2	Ochiq maydon tuprog‘ini yumshatishga	7	11,25	12,05
		8	12,85	

Resurstejamkor texnik vosita uchun quvvat sarfi bo‘yicha energetik vosita-traktor tanlash. Shataksirash (sirpanish), o‘zini-o‘zi harakatga keltirish va qiyalik bo‘yicha ko‘tarilishni yengib o‘tishga quvvatning yo‘qotilishini hisobga olgan holda tanlangan traktorning ilashish xususiyatlari bilan belgilanadigan ilmoqdagi tortish quvvati tahlil etildi. Ko‘rilayotgan masalaning yechimi grafo-analitik usulda taqdim etildi.



13-rasm. Dvigatelni foydali, agregatning ilmoqdagi va tortishga qarshilik quvvatlarining agregat tezligiga bog‘liqlik grafigi

Tanlangan traktor dvigatelining quvvatidan foydalanish koeffitsienti $\eta_{q.f} = 0,95$ tengligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**G‘o‘za qator oraslariga resurstejamkor texnik vosita bilan ishlov berishning xo‘jalik sinovlari va texnik-iqtisodiy samaradorligi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ishchi qismlar bilan jihozlangan resurstejamkor kultivatorning texnik–iqtisodiy ko‘rsatkichlari RD Uz 63.03–98 «Испытание сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники» va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida hisoblandi. Bunda ishlab chiqilgan resurstejamkor kultivator KXU-4A kultivatori bilan bilan taqqoslandi.

G‘o‘za qator orasi tuprog‘iga qatlamlab ishlov beradigan ishchi qismlar to‘plamining tarmoq qiymati 88 114 154,6 so‘mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Xorijiy va mahalliy texnologiyalar va texnik vositalarning tahlili g‘o‘za qator oralarini yumshatishda konstruktiv jihatdan murakkab, energiya, resurstejamkorlik talablariga to‘liq javob bera olmasligi, g‘o‘za qator oralarini qatlamlab chuqur yumshatib tuproqdagi suv-namlik zaxirasini saqlab qolishga, ildizlar rivojlanadigan muhitda suv, havo va ozuqa maromini ta’minlashga yo‘naltirilgan texnologiyani takomillashtirish asosida yangi texnik vositani yaratish, ishchi qismlarining parametrlarini asoslash dolzarbligini ko‘rsatdi.

2. Buning asosida g‘o‘za qatorlari oralarining tuprog‘iga energiya, resurstejamkorlik asosida ishlov beradigan ishchi qismlarga qo‘yiladigan agrotexnika talablari ishlab chiqildi.

3. Amalga oshirilgan nazariy va eksperimental tadqiqot natijalari g‘o‘za qator oralariga qatlamlab sifatli chuqur ishlov beradigan, tuproqdagi suv-namlik zaxirasini saqlab qoladigan, ildizlar taraladigan muhitda me’yoriy suv, havo va ozuqa rejimini ta’minlaydigan takomillashtirilgan texnologiya va texnik vositani yaratish hamda ishchi qismlarining parametrlarini asoslash imkonini berdi.

4. Tavsiya etilayotgan energiya va resurstejamkor texnik vositaning g‘o‘za qatorlari oralarining birinchi va ikkinchi tuproq qatlamlarini yumshatadigan ishchi qism pichoqlarining kengligi mos ravishda $b_1=b_2=130$ mm, uchinchi tuproq qatlamini yumshatadigan ishchi qism pichog‘ining kengligi $b_3 = 60$ mm., barcha qatlamlarini yumshatadigan ishchi qism pichoqlarining uzunligi L = 135-140 mm, o‘rnatish burchaklarini $\alpha = 25$ gradus, o‘tkirlanish burchaklarini $\beta = 30$ gradus, sirpanish burchagini $\gamma = 31$ gradus qiymatlari maqbul parametrlar hisoblanadi.

5. Texnik vosita ishchi qismlari yumshatish chuqurligining o‘rtacha $h_{yum}=125$ mm, ustunlarining orasidagi bo‘ylama masofaning l=350 mm, ko‘ndalang masofaning $S_1=306$ mm, $S_2=167$ mm qiymatlarida agrotexnika talablari sharti bajariladi, tuproqqa qatlamlab sifatli ishlov berilib, suv-namlik zaxirasini saqlab qolish, energiya hamda resurstejamkorlikni ta’minlash imkoni yaratiladi.

6. Ishlab chiqilgan resurstejamkor texnologiya asosida g‘o‘za qator oralari tuprog‘ini qatlamlab yumshatadigan texnik vositani ishlab chiqarishga joriy etish tuproqdagi namlikni saqlab qolish, qishloq xo‘jalik ekinidan qo‘shimcha hosil olish imkonini beradi.

7. G‘o‘za qator oralari tuprog‘ini qatlamlab yumshatadigan agregatning yangi ishchi qismlar komplektidan foydalanishning amaldagi yillik iqtisodiy samarasi ish unumdorligining 3,7 foizga ortishi, ekspluatatsion xarajatlarning 12,75 foizga kamayishi, hamda kapital qo‘yilmalarning 10,49 foizga kamayishi hisobiga bitta agregatga 8 036 478 so‘mni tashkil etadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.T.10.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ «ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»

УСМАНОВА ГУЛНОЗА ФАТХУЛЛАЕВНА

ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ РАБОЧИХ ОРГАНОВ ОРУДИЯ ДЛЯ ПОСЛОЙНОГО РЫХЛЕНИЯ ПОЧВЫ В МЕЖДУРЯДЬЯХ ХЛОПЧАТНИКА

05.07.01 – «Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация сельскохозяйственных и мелиоративных работ»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент–2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2026.1.PhD/T6549

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.tiiame.uz) и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Итамбердиев Аскар Кимсанович,** доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Худаяров Бердирасул Мирзаевич** доктор технических наук, профессор
	Абдурахманов Абдукарим Атхамович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится «19» октября 2026 г. в 10[00] часов на заседании научного совета № DSc.03/30.12.2019.T.10.01 при Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (Адрес: 100000, Ташкент, улица Кори Ниёзий дом 39. Тел: (+99871) 237-09-45; факс: (+99871) 237-38-79, e-mail: admin.@tiiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (регистрационный номер 432). (Адрес: 100000, Ташкент, улица Кори Ниёзий, дом 39.Тел:(+99871)237-09-45; факс: (+99871) 237-38-79, e-mail: admin.@tiiame.uz).

Автореферат диссертации разослан «20» октября 2026 года.

(Протокол рассылки №117 от «17» февраля 2026 года).

Б.С.Мирзаев
Председатель Научного Совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.Т.Кузиев
Ученый секретарь Научного Совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

К.Д.Астанакулов
Председатель научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Обеспечение продовольственной безопасности в мире и необходимость сохранения экологического баланса требуют широкого внедрения передовых технологий и технических средств, направленных на снижение расхода энергии и ресурсов в сельскохозяйственном производстве. Если принять во внимание, что в 2025 году общая площадь сельскохозяйственных угодий в мире прогнозировалась на уровне 4,8 миллиарда гектаров, из которых 1,6 миллиарда гектаров составляют пашни, то сохранение плодородия почвы, применение передовых технологий и технических средств, отвечающих агротехническим и экологическим требованиям обработки земли для получения высоких урожаев с пашни[1], является одной из главных задач современности. В связи с этим актуальной остаётся разработка ресурсосберегающих орудий и рабочих органов, которые улучшают водно-воздушные свойства корнеобитаемой зоны при обработке междурядий посевов, повышают эффективность орошения и урожайность до 10–15%, а также механически разрушают плотные слои почвы.

В мире ведутся научно-исследовательские работы по разработке новых научно-технических решений, ресурсосберегающих технологий и технических средств для обработки междурядий посевов. В данном направлении важнейшей задачей является создание способов и устройств, обеспечивающих длительное сохранение влаги в почве, повышение качества обработки междурядий посевов и экономию энергетических ресурсов за счёт внедрения ресурсосберегающих технологий. С этой точки зрения актуальными являются научно-исследовательские работы, направленные на разработку рабочих органов и технических средств, позволяющих послойно рыхлить почву в междурядьях хлопчатника.

В сельскохозяйственном производстве Республики Узбекистан осуществляется широкий комплекс мер по разработке машин и устройств, позволяющих снизить затраты труда и энергии, выращивать культуры на основе передовых технологий и экономить воду. В Указе Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года № УП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы» определены важнейшие задачи по реформированию сельского хозяйства страны, внедрению ресурсосберегающих технологий, обеспечению производителей сельскохозяйственной продукции современной техникой. В рамках реализации поставленных задач одной из важных является создание ресурсосберегающих орудии на основе технологии сохранения влажности почвы в междурядьях хлопчатника, обеспечивающих качественную обработку, технически и технологически модернизированных, а также

[1] https://www.fibre2fashion.com/news/cotton-news/global-cotton-production-consumption-set-to-rise-in-2024-25-icac-294218-newsdetails.htm?utm_source

обоснование параметров его рабочих органов.

Данная диссертационная работа в определённой мере служит выполнению задач, установленных Указом Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года № УП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 7 июля 2017 года № ПП-3117 «О мерах по дальнейшему развитию научно-технической базы в области сельскохозяйственного машиностроения», Постановлением от 31 июля 2019 года № ПП-4410 «О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственного машиностроения и государственной поддержке обеспечения аграрного сектора сельскохозяйственной техникой»[2], а также иными нормативно-правовыми документами, относящимися к данной деятельности.

Связь исследования с основными приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики. II «Энергетика, энергосбережение и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. В мировой практике разработаны различные методы повышения эффективности процессов обработки междурядий посевов.

В области создания технических средств для обработки междурядий технических культур, обоснования и совершенствования технологических рабочих процессов и параметров рабочих органов проводили исследования зарубежные учёные: S.G.Say, Е.И.Пономарёв, Ya.Say, Е.В.Софронов, А.А.Гаффаров, М.С.Чекусов, В.И.Кюрдюмов, В.П.Зайцев, М.Е.Пахомов (Россия), Sh. Lu, S. Xe, Li.Xunven, S. Van, S. Lu, V.Lyu, P.Lyu, Ch. Chjan, X. Li (Китай), K.R.Paarlberg, H.M.Hanna, D.S.Erbach, R.G.Hartzler, W.Thomas (США), T.Marakoglu, K.Carma, C.Ahmet, O.Ismail (Турция), V.K.Bishwal, J.Thomas, A.Dewangan, N.S.Rajput (Индия), А.С.Кобец, А.М.Пугач, М.М.Харитонов (Украина), M.A. Hemeda, Z.E.Ismail (Египет), R.Bernik, F.Vučajnk (Словения), H.Hosokawa, K.Adachi, K.Itoh, M.Matsuzaki (Япония), И.З.Ган-Ловкис (Республика Беларусь) и другие.

По вопросам создания технологий и технических средств для обработки междурядий хлопчатника и других технических культур, обоснования параметров рабочих органов значительные научно-исследовательские работы провели: Т.Г.Зинин, Г.М.Рудаков, В.А.Сергиенко, А.Х.Хожиев, Р.И.Бойметов, Е.И.Пономарёв, А.Тухтакузиев, А.Карахонов, П.И.Слободяк, S.G.Say, С.Н.Шамшетов, Ф.М.Маматов, Т.С.Худойбердиев, Б.М.Худояров, А.К.Игамбердиев, Х.Г.Абдулхаев, А.Ибрагимов, Б.У.Нурабоев, С.У.Темиров, М.Ш.Холдаров и другие исследователи, достигнув определённых положительных результатов.

Однако вопросы обоснования параметров рабочих органов технического

[2] https://lex.uz/docs/-3262178 https://lex.uz/uz/docs/-4457272

средства, обеспечивающего глубокое послойное рыхление почвы в междурядьях хлопчатника с сохранением влаги и одновременным формированием профиля борозды, остаются недостаточно изученными и исследованными.

